

BOSHLANG‘ICH SINF MUSIQA DARSLARINI ZAMONAVIY KREATIV YONDOSHUV ASOSIDA OLIB BORISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

Boltayev Baxtiyor Rustamovich

Samarqand davlat pedagogika instituti “Musiqa ta’limi” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Sadirov Eldor Toshtemirovich

*Samarqand davlat pedagogika instituti,
70110601-Musiqa ta’limi va san’at yo‘nalishi magistranti*

Annotatsiya: Musiqa ta’limi bolalar uchun nafaqat san’atning bir ko‘rinishi, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, hissiy dunyosi va madaniy ongini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda musiqa darslari o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini uyg‘otishda va rivojlantirishda asosiy o‘rin tutadi. Zamonaviy davrda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish va ularning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish uchun pedagogik yondoshuvlarni yangilash, kreativ metodlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu sababli boshlang‘ich sind musiqa darslarini zamonaviy kreativ yondoshuv asosida olib borish pedagogik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: musiqa, ta’lim, bolalar, san’at, kreativ metodlar, pedagogika, ijodiy qibiliyatlar, tinglash, ijro.

Musiqa ta’limining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda musiqaga nisbatan chuqur qiziqish uyg‘otish va ularni musiqiy ijro, tinglash, yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishga yo‘naltirishdir. Bu jarayonda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, qibiliyatlarini, qiziqishlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kreativ yondoshuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni yangi musiqiy tajribalarga jalb qilish orqali musiqa ta’limini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu yondoshuvda o‘quvchilar faqatgina nazariy bilimlarni o‘zlashtirib qolmay, balki o‘zlarini musiqiy ijodkor sifatida namoyon eta olishlari uchun sharoit yaratiladi.

Boshlang‘ich sind o‘quvchilari uchun musiqa darslarida interaktiv metodlarni qo‘llash juda muhimdir. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning faol ishtirotini ta’minlaydi, ularni musiqiy jarayonlarga faol jalb qiladi. Bu usullar orqali o‘quvchilar musiqiy tushunchalarni osonroq o‘zlashtiradi, tinglash, ijro etish, yaratish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Masalan, ritm o‘yinlari orqali o‘quvchilar ritmni his qilishni o‘rganadilar, musiqiy qahramonlar yaratish orqali ularning tasavvur doirasi kengayadi, qo‘sish aytish va musiqa asboblarida ijro etish esa ularning musiqiy

ko‘nikmalarini oshiradi. O‘yin shaklidagi darslar bolalar uchun qiziqarli bo‘lib, ularning diqqatini jamlashga yordam beradi.[1]

Zamonaviy texnologiyalarni musiqa ta’limida qo‘llash esa darslarni yanada ko‘rgazmali va interaktiv qiladi. Multimedia vositalari, masalan, kompyuter dasturlari, mobil ilovalar, elektron musiqiy asboblar yordamida o‘quvchilar yangi musiqiy tajribalarga ega bo‘ladi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, dars jarayonini samaraliroq qiladi va musiqa ta’limini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi. Shuningdek, internet resurslari yordamida o‘quvchilar dunyo musiqasi bilan tanishadi, turli millatlarning musiqiy madaniyati haqida ma’lumot oladi, bu esa ularning madaniy ongini kengaytiradi. Ijodiy yondoshuvni ta’minalash uchun loyiha usulidan foydalanish ham juda samaralidir. O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, musiqiy asarlar yaratish, sahnalashtirish yoki musiqiy tadbirlar tashkil etish orqali o‘zlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchilarning hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mas’uliyat hissini oshiradi va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi. Loyihalar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladi, ijodiy fikrflashni rivojlantiradi va o‘z ishining natijasini boshqalar bilan bo‘lishishga o‘rganadi.[2]

Musiqa ta’limida milliy madaniyat va an’analarni o‘rgatish ham muhim ahamiyatga ega. Milliy musiqiy merosni o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘z millatining madaniy qadriyatlarini anglaydi, milliy o‘zlikni rivojlantiradi. Xalq qo‘sishlari, raqslari va musiqiy asboblar bilan tanishish o‘quvchilarda milliy g‘urur va madaniy hurmat hissini uyg‘otadi. Bu jarayon o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi va ularni madaniy merosga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.[3]

Baholash tizimini ham zamonaviy kreativ yondoshuvga moslashtirish zarur. An’naviy baholash usullaridan tashqari, o‘quvchilarning ijodiy ishlari, musiqiy loyihalari, guruhdagi faoliyati ham baholanishi lozim. Bu o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ta’lim jarayoniga faol ishtirok etishga undaydi. Baholash jarayonida o‘quvchilarning individual yutuqlari va ijodiy yondoshuvlari e’tiborga olinishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish ham zamonaviy kreativ yondoshuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar, innovatsiyalar bilan doimiy tanishib borishi, ularni amaliyotga tatbiq etishi zarur. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy yondoshuvi, o‘quvchilarga individual yondashuvi va motivatsiya berish qobiliyati musiqa ta’limining sifatini belgilaydi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun seminarlar, treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim.[4]

Boshlang‘ich sinf musiqa darslarini zamonaviy kreativ yondoshuv asosida olib borishning yana bir muhim jihat – o‘quvchilarni musiqa orqali hissiy va estetik rivojlantirishdir. Musiqa o‘quvchilarda nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki

ularning hissiy dunyosini boyitadi, ijtimoiy va madaniy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kreativ yondoshuv o‘quvchilarning musiqiy ifoda vositalarini kengaytiradi, ularni o‘z his-tuyg‘ularini musiqiy shaklda ifodalashga o‘rgatadi. Bu esa bolalarning ruhiy holatini yaxshilashga, stressni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, musiqa ta’limi bolalar orasida muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Guruhda musiqiy ijro, birgalikda qo‘sish qaylash yoki musiqa asboblarida ijro etish o‘quvchilarning bir-biri bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlaydi, jamoaviy ruhni oshiradi. Kreativ yondoshuv bu jarayonlarni yanada faol va samarali qiladi, o‘quvchilarni birgalikda ijod qilishga undaydi. Musiqa ta’limida o‘quvchilarni erkin fikrlashga, yangi musiqiy shakllarni yaratishga undash ham pedagogik yondoshuvning muhim qismidir. O‘quvchilarga o‘z musiqiy g‘oyalarini ifoda etish uchun erkinlik berilishi, ularni yangi usullarni sinab ko‘rishga rag‘batlantirish ijodiy jarayonni rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida, musiqa ta’limining sifatini oshiradi va o‘quvchilarni kelajakda musiqiy faoliyatga tayyorlaydi.[5]

Musiqa darslarida o‘yin usullari o‘quvchilarning diqqatini jamlash va darsga qiziqishini oshiradi. Bolalar tabiatan faol va harakatga moyil bo‘lgani uchun, o‘yin shaklidagi faoliyat ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Musiqa darslarida ritm o‘yinlari, qo‘sish aytish, musiqiy harakatlar orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladilar va o‘rganish jarayoniga faol jalb qilinadilar. O‘yin usullari orqali o‘quvchilar musiqiy bilim va ko‘nikmalarni amaliy tarzda egallaydilar. Masalan, ritm o‘yinlari orqali ular musiqaning asosiy elementlari – ritm va tempni his qilishni o‘rganadilar. Qo‘sish aytish va musiqiy harakatlar esa musiqaning ifoda vositalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu tariqa, o‘yinlar musiqiy bilimlarni nazariyadan amaliyotga o‘tkazishda samarali vosita bo‘ladi. O‘yin usullari bolalarning ijodiy fikrlashini va musiqiy ifoda qobiliyatini rivojlantiradi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar yangi musiqiy shakllarni yaratishga, o‘z his-tuyg‘ularini musiqiy harakatlar yoki qo‘sish orqali ifodalashga o‘rgatiladi. Bu esa ularning ijodiy salohiyatini oshiradi va o‘ziga ishonch bag‘ishlaydi. O‘yin usullari ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhimdir. Guruhda o‘ynaladigan musiqiy o‘yinlar o‘quvchilarni hamkorlikka, bir-birini tinglashga va birgalikda ijod qilishga o‘rgatadi. Bu esa ularning jamoadagi o‘rinlarini anglashlari va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘yin usullari bolalarning hissiy va estetik rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa o‘yinlari orqali bolalar o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa ularning ruhiy holatini yaxshilaydi va stressni kamaytiradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf musiqa darslarini zamonaviy kreativ yondoshuv asosida olib borish ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning madaniy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kreativ yondoshuv o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, interaktiv va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan

metodlarni qo'llashni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, o'yin usullari, loyiha faoliyati va milliy madaniyatni o'rgatish kabi pedagogik vositalar musiqa ta'limini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning malakasini oshirish va baholash tizimini takomillashtirish ham bu jarayonning ajralmas qismidir. Natijada, boshlang'ich sinf musiqa darslari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning estetik va madaniy rivojlanishini ta'minlovchi samarali vositaga aylanadi. Bu yondoshuv orqali kelajak avlod musiqiy madaniyatga ega, ijodiy fikrlaydigan va o'zligini anglaydigan shaxslar sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Sh., Usmonov S. "Pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent, 2021
2. Sharipova G. "Musiqa o'qitish metodikasi". Toshkent, 2021
3. Xudoyberganov A. "Musiqiy faoliyatlarni olib borishda kreativ yondashuv". Farg'onha Davlat Universiteti, 2023.
4. Karimova N. "Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish". Pedagogika ilmiy jurnali, 2024.
5. Tursunova M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari". Ilmiy maqola, 2020
6. Rashidova Z. "Ta'lim muassasalarida musiqa darslarini kreativ yondashuv asosida tashkil etish usullari". Pedagogika jurnali, 2019
7. Islomov B. "Boshlang'ich sinf musiqa darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar". Ilmiy maqola, 2017